

QAHRAMONNING RUHIY HOLATI VA POETIK KO'CHIMLARNING
BADIY ESTETIK XUSUSIYATLARI

Qarshi DU tadqiqotchisi

D.Ro'ziyeva

Usmon Azim xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyatining mukammallik kasb etishida o'z davrini tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, u olam va odam, borliq haqidagi o'tkir falsafiy qarashlari bilan odamning tuyg'ulariga ta'siretish, tarbiyalash bilan birga odamni Hazrati Inson darajasiga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'sha olgan mohir ijodkordir.

Uning she'rlarida o'zgacha bir sehir, o'zgacha bir ohangni sezish mumkin. Shoir Usmon Azimning butun she'riyati bag'ridan ana shunday kechinma shoir tomonidan tanlangan, pardoqlangan va o'quvchiga taqdim etilgan qayg'u va quvonchlar go'yo o'q chiziq bo'lib o'tadi. Usmon Azim she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, hayotni butun ziddiyatlari bilan his etadigan lirik qahramonning g'oyat rang – barang kechinmalari ifodasini ko'ramiz. Ma'lumki, she'riyatda lirik qahramon kechinmalarida “ men ” shoir shaxsiyati va uning hayot haqidagi qarashlari umumlashadi. Shoir yaratgan lirik qahramon o'tmishni, o'zi tashayotgan davrni chuqur his etadi. Shu bilan birga, u kelajak haqida ezgu niyatlar qiladigan davr kishisining murakkab timsoliga aylanadi. Shoirning “ Sarbadorlar qo'shig'i ” she'rida xalq uchun boshini dorga tikkan bir guruh xalq qahramonlari hayoti va ularning eng og'ir daqiqalarda, o'lim bilan yuzma-yuz turgan paytdagi kechinmalarini his qilamiz, ularning xalq va haq yo'lidagi kurashlari tasvirida ana shu kechinma yanada obrazlashadi .

“ Qayt”, dedingiz, “ qalb”, dedik

“ Ayt”, dedingiz “ haq”, dedik

Boshimiz dorda turib,

“jon”, demadik, “xalq” dedik.

Shoirning bu she'rida lirik kechinma kuchli falsafiy mushohada bilan yo'g'rilgan. Haq va xalq yo'lida jonini tikkan mard er yigitning matonat va jasorati uning iymon-u etiqodini belgilashi lirik kechinmaning obrazlilik salmog'ini yanada oshirgan. Manashu xususiyati bilan shoir ijodining xarakterli jihatlarini, obrazlilikini, tili va uslubini yanada yorqinroq ifoda etadi.

Shoir kechinmani ko'pchilik hollarda ixcham, lekin chuqur mazmunli shakllarda ifodalashga iltiladi. Jumladan, oddiy bir tosh orqali davrning g'oyat muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qilgan. She'rdagi haqiqat uchun kurash poetik kechinma obrazlilik darajasiga ko'tariladi. Bu kechinma shoirni azobga soladi va sekin sirli ohang orqali sirg'alib she'rga aylanadi.

Osmonga ham otgum tosh,
Gunohkor bo'lsa quyosh.
Gunohkor bo'lsa quyosh,
Qaytib tushmagaydir tosh
Osmon ham bo'lib g'anim,
Qaytib tushsa, ne g'amim!
Bir tosh tushsa tushibdi,
Tog'dek boshimga manim.

Usmon Azim yuqoridagi she'rdagi tosh tafsilini hayotdagi yomonlikni yo'qotish ramziga aylantiradi. Ayni paytda tosh to'g'rilikni inkor etuvchi, uni ezuvchi inson boshiga minglab kulfat keltiruvchi yovuz kuchning poetik tasvirini ham beradi. Shu o'rinda aytishimiz joiski, adabiyotimizda, xususanda, she'riyatda ko'chimlar ko'p ishlatiladi. She'riyatimizda tez-tez uchrab turadigan gul, bulbul, kun, tun, oy, yulduz quyosh kabi ana'naviy poetik obrazlar ham aslida majozidir. Potik ko'chim, badiiy tasvir vositasi, ya'ni asarning potik bezagigina bo'lib qolmasdan, asar g'oyasini konkretlashtirishning realistik vosidasi hamdir. Usmon Azimning ko'pgina she'rlarida bunday tasvir vositalarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu misralarga diqqatimizni qarataylik:

Ko'zlari chaqmoq tulpor ,
Tuyog'i chaqmoq tulpor ,

Suvliq lablarin yirtgan,

Yollari bayroq tulpor ,

Shoir she'rdagi badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. She'rdagi tasvir obyektini aynan she'riyatdir. Unda ramziylik orqali ifodalanayotgan taziqqa uchrab, jiddat bilan ucholmayotgan, ko'zlari, tuyog'lari xuddi chaqmog'day tulpor ya'ni she'riyat nazarda tutilyapti. Bir necha yillar avval adabiyotimiz taziq iskanchasida bo'lgan davrda ijtimoiy hayotimizda hukm surayotgan illatlarga qarshi insoniyatning tafakkur ongini ochish uchun adabiyotimizning yorqin aksini namoyish etish zamirida she'riyatning uchqur tulpordek, bir bosgan izi gulday ochilib, bir bosgan izi kunday yorishib, haqiqatga tik boqib, haqiqat uchun kurashib, quyoshday porlab tundan ajrab ayro bo'lib borish natijasida hayot va haqiqat orasida kontras halatni vujudga keltirgan. She'riyat orqali insoniyatning ongi shuuriga shoir yaratgan lirik qahramon o'zini ham ichidagi bir olam deb biladi. Shu bilan birga hamisha ziddiyatli kechinmalar qurshovida yashaydi. Shoir ayni kechinmani obrazli ifodalash shakillarini qidiradi. Izlanish uni tashbeh, majoz va yangi-yangi obrazlar sari yetaklaydi.

Shu o'rinda shoirning "Bir daraxtning so'ngi qo'shig'i" she'riga etiborimizni qarataylik:

Men shunday yaralдим sumbatim egri,

Gullarim qalblarga solmas hayajon.

Mevamga hech kimning tushmagan mehri,

Bargimchumoligabo'lmas soyabon.

Alvido! Men endi maqsadgay etdim

Bog'doshlar so'ngi bo'lgakuzating, qani...

Meno'tinbo'lgani uzlatgak etdim,

Men ketdim, do'stlarim, olovbo'lgani!

Bushe'rdashoir yaratgandaraxtobrazi, albatta, majoziy ma'noga ega. Bu daraxtning sumbati egri, gullari esa hech kimni hayajonlantirmaydi, mevalariga esa hech kimni mehri tushmagan, barglari hattochumoliga ham soya bermagan bo'lsa ham, bular uning xohishi bilan emas, balki u yashagan ijtimoiy muhitning

illat va kirdikorlari bilan bog'liq ekani anglashiladi. Umri mobaynida maqsadiga erisholmagan daraxtning hayot shomida favqulotda holatga tushishi va bu holat garchi yo'qlik qariga, adamga olib ketsada bu ketishdan kimgadir foydasi tegishi va safdoshlariga qarata do'stlarim deya shiddatkor da'vatini nazarda tutiladi. Uning yonishi, olov bo'lishi zamirida shunday ma'no mujassamlashgan. Darhaqiqat, shoir ijodidagi o'ziga xoslik kutilmagan tasvirlar yoxud obrazlar yaratish mahorati bilan namoyon bo'lar ekan, o'z navbatida shoir tomonidan yuksak mahorati orqali ifodalanga poetik kechinma badiiy obrazlilikka xizmat qiladi. Usmon Azimning umr kuzagidagi barcha asarlariga, nazarimda, she'riy eskizlar bordek tuyuladi. Vaqt jihatidan eng so'nggi "Fonus" she'rlar to'plami ana shu oxirgi o'n yillikda yaralgan she'rlardan tartiblangan.

Yolg'izligimning yuksakligi bor – chiqolmaysan.

Yolg'izligimning teranligi bor – tusholmaysan.

Yolg'izligimning kengligi bor – faqat senga tordir.

Yolg'izligimning hech kimi yo'q – faqat parvardigori bordir.

Shoir Usmon Azim savol qo'yimoqni yaxshi ko'radi. Ammo ko'p salaf - u safdoshlaridan farqli u o'z savollariga o'zi javob qilmoqni ham xush ko'radi. Chunki ayrim shoirlarda savol javob bilan birga tug'iladi. Shoirlar, odatda, ko'proq javob topganlaridaxapriqadilar, o'zlariga sig'may qoladilar. Tezroq uni aytib - ifodalab, ko'ngilni, tafakkurni bo'shatib oladilar. Usmon Azim xuddi shunday, savollarni javobi bilan yaratadigan shoir. Shuning uchun o'ziga ishonib, gohi havolanib aytayotgandek tuyulsa - da, uni qabul qilasan:

Iste'dodning daraja - yu miqyoslari bo'lgani kabi, savol qo'ya biladigan shoirlarning ham so'rog' - u javob miqyoslari har xil, teranligi, qamrovlari turlicha, ifodasi, badiiyati o'ziga yarashadir.

Shu ma'noda Usmon Azim miqyosli savollar qo'ya biladigan va miqyosli javoblar topib, ayta biladigan nuktabin hassos shoir. Uning savol - u javoblari hech qachon siyqa bo'lmaydi. Sodda bo'lar - u, ammo sira mayda bo'lmaydi – qalbdagi suvaydodan, ongdagi, ong ostidagi gohi g'alat zidliklardan to kurrayi zamindagi, Arshi muallodagi tilsim-u mo'jizotlargacha, ko'ngil epkinlaridan to o'lim - u abadiyat nisbatlarigacha, Boysun tog'laridan Vatan – O'zbekiston

kengliklari, o‘tmishi - yu buguni, dard - u armonlarigacha – bari uning savollari va javoblari. Haqiqiy shoirning ruh va fikr maqomi o‘ziga xos, doimo yuksak bo‘ladi. Bu o‘ziga xoslik va yuksaklikning muhim bir jihati – olomoni qiziqtiruvchi, olomonga maqbul keluvchi fikr va tuyg‘ulardan shoir qalbining poklanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanlangan asarlar 1-jilt Usmon Azim Toshkent: G’G’ulom nashriyoti batbaa ijodiy uyi 2016
2. Tanlangan asarlar 2-jilt Usmon Azim Toshkent: G’G’ulom nashriyoti batbaa ijodiy uyi 2016
3. Usmon Azim Saylanma “Shsrq” nashriyoti Toshkent 1995